



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS
INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA
DARSLARNI TASHKIL QILISH

Fazliddinova Marjona Obidovna
Andijon davlat chet tillari instituti
Roman-German va Slavyan tillari fakulteti
filologiya va tillarni o'qitish nemis tili yo'nalishi
3- bosqich talabasi

Annotatsiya: "Innovatsion pedagogik texnologiya asosida darslarni tashkil qilish" mavzusi o'quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish uchun zamonaviy pedagogik yondoshuvlarni tatbiq etishni ko'zda tutadi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash, darslarni yangi metodikalar asosida tashkil etish va o'quvchilarning faolligini oshirishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar, masalan, raqamli ta'lim platformalari, multimedia vositalari va masofaviy o'qitish usullari orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Bunda o'quvchilarning ijodkorlik, tahliliy fikrlash va mustaqil ish olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion pedagogika, pedagogik texnologiyalar, interaktiv dars, raqamli ta'lim, multimedia vositalari, masofaviy o'qitish, o'quv jarayoni, o'quvchilarning faolligi, ijodkorlik, tahliliy fikrlash, ta'lim sifati, o'qituvchilar va o'quvchilar aloqasi.

Аннотация: Тема «Организация занятий на основе инновационных педагогических технологий» предусматривает реализацию современных педагогических подходов, позволяющих сделать учебный процесс более эффективным и интерактивным. Эти технологии помогают улучшить общение между преподавателями и учениками, организовать уроки на основе новых методов, повысить активность учащихся. Качество образования можно улучшить с помощью инновационных технологий, таких как цифровые образовательные платформы, мультимедийные инструменты и методы дистанционного обучения. Большое внимание уделяется развитию творческих способностей студентов, аналитического мышления и навыков самостоятельной работы.

Ключевые слова: инновационная педагогика, педагогические технологии, интерактивный урок, цифровое образование, мультимедийные инструменты, дистанционное обучение, учебный процесс, активность учащихся, креативность,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

аналитическое мышление, качество образования, вовлеченность преподавателей и учащихся.

Abstract: *The topic "Organization of lessons based on innovative pedagogical technology" provides for the implementation of modern pedagogical approaches to make the educational process more effective and interactive. These technologies help improve communication between teachers and students, organize lessons based on new methods, and increase student activity. The quality of education can be improved through innovative technologies, such as digital educational platforms, multimedia tools, and distance learning methods. Great attention is paid to the development of students' creativity, analytical thinking and independent work skills.*

Key words: *innovative pedagogy, pedagogical technologies, interactive lesson, digital education, multimedia tools, distance learning, educational process, student activity, creativity, analytical thinking, quality of education, teachers and student engagement.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 05.09.2018 yildagi PF-5538 Farmonida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab" Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi kiritilishi haqida so'z boradi. Bunda ekologik jihatdan toza materiallar va energiya muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish; maktablarni, shu jumladan, o'quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, darsliklar va o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash; uch oy muddatda o'quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutgan holda umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko'rib chiqilishi belgilangan. Shunga ko'ra, Respublikamizning har bir hududida prezident maktablari ochildi va unda maktabda o'qitiladigan fanlar bilan bir qatorda zamonaviy kasblar ham o'rgatilishiga katta ahamiyat qaratilgan. Texnologik ta'lim fanining "texnologiya va dizayn" yo'nalishi shular jumlasidandir. Kirish: Avvalo texnik modellashtirish o'zi nima ekanligiga to'xtalib o'tamiz. Texnik modellashtirish mashg'ulotlarda namuna rasm va chizmalar berilgan o'lcham konstruktor usta naborining detallari va turli materiallarini qo'llab og'zaki tasvirlash bo'yicha texnik buyumlar, modellar va maketlar va robotlar tayyorlash nazarda tutiladi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar texnik o'yinchoqlar va modellarni ishlatib namoyish qilishlari, ularni boshqarishlari, shuningdek namoyish jarayonida konstruktsiyaning detal va qismlarini aytishlari, ularni nimaga mo'ljallanganligini bilishlari kerak. O'quv mashg'ulotlarining bu turi o'quvchilarda konstruktorli-texnik tafakkurni, mustaqil rejalashtirish va o'ylab qo'yilgan texnik buyum(kran, avtomashina, buldozer, raketa va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shu kabilarni) modelini amaliy bajara olish ko'nikmalarini o'stirishda juda muhim o'rin tutadi. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: - Talabaning dars davomida befarqi bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish; - Talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash; - Talaba talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi; - Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi. Tadqiqotchilar (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G. Kruglikov, A.S. Axiezer, N.P. Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi. Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konseptsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi: 1. Yangi g'oya tuqilishi yoki yangilik konseptsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot

Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Dunyoda

ta'lim tizimida ro'y berayotgan ta'limning bayналminallashuvi, talabalarning xalqaro mobilligi, (almashuv dasturi) ta'lim dasturining tez o'zgaruvchanligi kabi global tendensiyalar bir qatoriga ta'lim sifatini ta'minlash masalasi ham alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar ta'lim muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan

foydalanish talab etiladi. Aynan mamlakatimiz ta'lim tizimida zamonaviy tendensiyalarni, ayniqsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimida





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

foydalanayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni isloh qilishning zamonaviy tajribalari nisbatan asta-sekin o'zlashtirilmoqda.

O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, shuningdek, tadbqiq etishning izchil usulidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan, kimyo sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalarni keltirib o'tish talabalarni kreativ fikrlash ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi.

Bizning ilmiy-tadqiqot natijalarimiz bo'yicha ta'lim jarayonida avval qiziqish uyg'otib, motivatsiya berib, so'ngra raqobat muhiti yaratilsa talabalarda 150 innovatsiya yaratishdagi kreativ fikrlash bo'yicha yashirin qobiliyatlari uyg'otiladi va albatta rag'batlantirish amalga oshirilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida" gi Farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

“O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

3.N.X.Avliyov, N.N.Musayeva “Yangi pedagogik texnologiyalar”- Darslik 15-20 b.

4.N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.

5.М.С.Рахматов, М.С.Норова, И.Х.Давлатов “Проблемы перспективных материалов для техники и технологии” - Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации.

